

FARMATSEVT UCHUN GIGIYENANING AHAMIYATI

Uralov Ulug'bek Baxriyevich

(SamDTU o'qituvchisi)

Toshqulova Dilshoda Sirojiddinovna

(SamDTU talabasi)

Isomiddinov Shamshod G'ayrat o'g'li

(SamDTU talabasi)

Sulaymonov Hasan Ilyos o'g'li

(SamDTU talabasi)

Annotatsiya: *Dori preparatlarini tayyorlash va saqlashda gigiyenik rejimga qat'iy rioya qilish lozim, shuning uchun ular dorixona muassasalarida va farmatsevtika korxonalarida atrof muhit parametrlarining gigiyenik me'yorlarini yaxshi bilishi kerak. U gigiyenik me'yorlarni va sanitariya qoidalarini dorixonada buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.*

Kalit so'zlar: *konsepsiyasi, reglament, fizikaviy, kimyoviy, biologik, radiologik, statistik, gigiyenik, preparatlari*

Zamonaviy farmatsevtlar va farmatsevt texnologlar – ular tibbiy xodim, dori preparatlarini tayyorlash sohasida mutaxassis, aholi salomatligini mustahkamlash ishlarida va profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etadigan shaxslardir. Shu nuqtai nazardan qaraganda gigiyena sohasidagi bilimni ikkala mutaxassislar ish faoliyatida zarur ekanligini alohida qayd etish lozim. Dorixona sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalardan biridir, uning asosiy vazifasi, aholini va davolash-profilaktik muassasalarini dori preparatlari, sanitariya va boshqa tibbiyot mahsulotlar bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iboratdir. Dori preparatlarini tayyorlash va saqlashda gigiyenik rejimga qat'iy rioya qilish lozim, shuning uchun ular dorixona muassasalarida va farmatsevtika korxonalarida atrof muhit parametrlarining gigiyenik me'yorlarini yaxshi bilishi kerak. U gigiyenik me'yorlarni va sanitariya qoidalarini dorixonada buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Farmatsevtlar sanitariya epidemiologiya xizmati xodimlari bilan birga dorixona xonalarida gigiyenik rejimga rioya qilish va mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishi, dorixona qurilishi loyihalariga baho berishda, ogohlantiruvchi va joriy sanitar nazoratini olib borishi kerak.

Dorixona xodimlarining shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishlari katta ahamiyatga ega. Dorixona xodimlarining bu qoidalarga rioya qilmasliklari natijasida dori preparatlari, distillangan suv, dorixona jihozlari ifloslanishi mumkin. Shuningdek, dorixona xodimlari bemor odam bilan aloqada bo'lganda, havo, retseptlar, turli xil jihozlar orqali zararlanishlari mumkin. Farmatsevtlar ish faoliyatida sanitar-maorif ishlari ahamiyatli o'ringa ega, u aholi sanitar madaniyatini oshirishga, o'zicha davolanishga va aholi orasida turli xil yuqumli

kasalliklarni oldini olishga qaratilgandir. Farmatsevtlar ish faoliyatida davolovchi va sanitar shifokorlari bilan doimo muloqotda bo'ladi. Bu esa provizorni tibbiyot profilaktikasida, atrof muhitni muhofaza qilishda va boshqa asosiy yangiliklar haqida xabardor bo'lishlarini talab qiladi. Tibbiy-profilaktika yo'nalishidagi kasb egalari uchun gigiyenik bilimlar uning mehnat faoliyati asosini tashkil qiladi. Shu bilan birga farmatsevt uchun ular o'zining kundalik faoliyatida keng ma'noda gigiyenaga doir masalalarga duch keladi. Gigiyenik bilimlarga ega bo'lmagan farmatsevt ayniqsa kasbga oid kasalliklarni umuman to'g'ri baholay olmaydi, bemor uchun zaruriy bo'lgan davolovchi preparatlarni, dorixona ichi infeksiyasining oldini olish tadbirlarini ta'minlay olmaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi gigiyenik me'yorlar Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida ko'plab gigiyenik me'yoriy hujjatlar tasdiqlangan va amaliyotda qo'llash uchun tavsiya qilingan bo'lib, ularning asosiylari Sanitariya qoidalari va me'yorlari (SanQvaM) hisoblanadi. Bu hujjatlarning aksariyat qismi oldin o'rnatilgan me'yorlar bo'lib, ularga ayrim yangilik va qo'shimchalar kiritilgan, bunda O'zbekistonning geografik-iqlim sharoitlarining o'ziga hosligi, respublika iqtisodiyotining hususiyatlari hamda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar inobatga olingandir. Bu hujjatlarning bir qismi ko'pincha gigiyenik reglament ko'rinishi (masalan, atmosfera havosidagi kimyoviy moddalarning REM, shovqin va tebranishning REM) tabiatiga egadir, ammo bu hujjatlarning ko'pchilik qismi o'z tarkibiga sanitariya qoidalari va me'yorlarini yoki sanitariya qoidalari va reglamentlarini oladi. Sanitariya qoidalari va me'yorlaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasida me'yoriy hujjatlar qatoriga uslubiy tavsiyanomalar, uslubiy ko'rsatmalar, ko'rsatma xatlar, tekshirish usullari kirib, ilmiy izlanish natijalari asosida tayyorlangan hamda ko'p bosqichli ko'rib chiqilishi va muhokama qilinishi shart bo'lgan sharoitlarda ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

Gigiyenik me'yor va reglamentlarni o'rnatish tartibi muayyan misollarda ko'rib chiqilishi kerak. Masalan, yashash xonalarining mikroiklimi yoki uning yoritilishiga doir gigiyenik me'yorlar tabiiy tekshirishlar asosida ishlab chiqilishi va tekshirish jarayonida tekshirilayotgan omilning turli sharoitlarda odam organizmining funksional holatiga ta'siri bilan baholanishi kerak, masalan, (mikroiqlim uchun - issiqlikning boshqarilishi, yurak-qon-tomir tizimi, nafas olish organlari funksiyasi; yoritilganlik uchun - ko'rish a'zolari va markaziy asab tizimi funksiyasi). Bunda tekshirilayotgan omilning shunday parametrlari gigiyenik me'yor qilib olinishi kerakki, u organizmning optimal funksional holatini ta'minlasin. Aholining eng optimal suv iste'moli me'yorlarini o'rnatish uchun aholining ko'pchilik qismidan anketa so'rovlar o'tkazilib, keyinchalik turarjoylarning kommunal obodonlashtirilganligiga bog'liq holda suv sarfi qiymatlari hisoblab topiladi. Ayrim omillarni me'yorlashtirishda tabaqalashgan me'yorlashtirish prinsipi qo'llanadi va bunda omilning yuqori, optimal va quyi darajalari o'rnatiladi. Shunday prinsip bo'yicha, jumladan ishlab chiqarish xonalarining ruxsat etiladigan va optimal mikroiklim qiymatlari va ichimlik suvi

tarkibidagi kimyoviy elementlarning ruxsat etiladigan miqdoriy chegarasi belgilangan va hakazo.

Gigiyenik me'yorlardan farqli o'laroq, gigiyenik reglamentlarni o'rnatish, qoida bo'yicha tabiiy sharoitda emas, balki tajriba (eksperiment) sharoitida olib boriladi. Omillarning gigiyenik reglamentatsiyasi atrof-muhitdagi turli omillarning bo'sag'ali ta'sir konsepsiyasiga asoslanadi. Gigiyenik reglamentlarni o'rnatish - bu murakkab va etarlicha uzoq davom etadigan jarayondir. U me'yorlashtiriladigan omilning sifat va miqdoriy ta'riflash bilan birga fizikaviy, kimyoviy, biologik, radiologik, statistik tekshirish usullaridan foydalanishni, omilni tirik organizmga ta'sirini o'rganish bilan keyinchalik olingan ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va shunga muvofiq reglament ishlab chiqishni taqozo etadi. Ko'p sonli gigiyenik reglamentlar qatoriga kimyoviy moddalarga ruxsat etiladigan konsentratsiyalar (REK) ni kiritish mumkin. - atmosfera havosidagi kimyoviy moddalarni reglamentlash; - kimyoviy moddani havzalardagi suvda reglamentlash; - kimyoviy moddalarni tuproqda reglamentlash; - kimyoviy moddalarni oziq-ovqat mahsulotlarida reglamentlash.

O'tkazilgan tekshirishlarning natijalari asosida tekshirilgan moddaning zaharlilik sinfi o'rnatiladi va talab etiladigan gigiyenik reglamentlar hisoblab topiladi (REK). Ishlab chiqilgan gigiyenik me'yor va reglamentlarning samaradorligi aholining salomatlik darajasini o'rganish asosida baholanadi yoki ishlab chiqilgan gigiyenik me'yorning vazifasiga muvofiq aholining ayrim guruhlarida baholanadi.

Xulosa: Gigiyenik me'yorlashtirish va reglamentlashtirish atrof-muhitdagi omillarning barchasini o'zida aks ettirishi bilan birga ishlab chiqiladigan barcha profilaktik va sog'lomlashtirish tadbirlari uchun asos bo'ladi. Xorijiy mamlakatlarda shu jumladan, Amerika Qo'shma shatatlarining ko'plab kasaba uyushma tashkilotlarida, birlashma va davlat mahkamalarida turli xil sohalarning, atrof-muhitni zararlovchilarning hamda jismoniy idoralarning faoliyatini chegaralovchi tavsiyanomalarni, qo'llanmalarni, me'yornlarni ishlab chiqarish rivojlangan. Bularning ichida eng mashxuri Amerika davlat iqtisodiyot gigiyenachilari kengashi bo'lib, ular ish joylarida jismoniy zo'riqishlarni va kimyoviy zaharlanishlarni chegaralab turish maqsadida turli tavsiyanomalar ishlab chiqishadi. Bundan tashqari, Radiaktiv himoya xalqaro komissiyasi va Radiatsion himoya milliy vazirligi ham radiatsion zaryadlanishga qarshi himoyalash uchun shu turdagi bir xil qo'llanmalarni yaratgan. Birlashgan mahkamalar quyidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi: Atrof muhitni himoyalash agentligi, Oziq-ovqat va dori-darmon boshqarmasi, Kasbiy havfsizlik va Sog'liqni saqlash boshqarmasi, Qo'shma shtatlar Atomni nazorat qilish komissiyasi. Bu tashkilotlar atrof-muhitdagi, uy sharoitidagi, ishxonadagi jismoniy zo'riqishlar, tushkinliklar va zaharlanishning bir necha xil turlarini me'yornlar asosida nazorat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Уралов У., Баратова Р., Раджабов З. УЛУЧШЕНИЕ САНИТАРИИ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 176-179.
2. Боймуродов Х. Т. и др. ВЛИЯНИЕ АБИОТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ЛЁТ ПЧЕЛ И СБОР МЁДА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ //INTERNATIONAL RESEARCH FORUM-2022. – 2022. – С. 174-178.
3. Ergashovich K. I., Bakhriyevich U. U. Toxic infections and intoxications caused by food //IQRO. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 181-186.
4. Baxriyevich U. U., Ergashivich Q. I. BOLALAR VA O'SMIRLAR SALOMATLIGINING GIGIYENIK BAHOLASH //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1027-1035.
5. Baxriyevich U. U. et al. CORRECT NUTRITION IS DISEASE PREVENTION //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 769-776.
6. Bakhriyevich U. U., Abdurakhmonovna E. M. ROLE OF THE OZONE LAYER IN BIOLOGICAL PROCESSES //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1019-1026.
7. Bakhriyevich U. U., Amankeldievna S. M. IMPACT OF ECOLOGICAL PROBLEMS ON SOCIETY AND ECOLOGICAL PROBLEMS OF THE PRESENT TIME //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1000-1008.
8. Уролов У. Б. ТУПРОҚНИ ЭРОЗИЯДАН САҚЛАШ ТАДБИРЛАРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 761-768.